

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OCHILOV ILHOM SAYITQULOVICH

**AGROKLASTERLAR FAOLIYATI HISOBI VA SAMARADORLIGI
TAHLILI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

Ochilov Ilhom Sayitqulovich

Agroklasterlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish 3

Очилов Илхом Сайиткулович

Совершенствование методологии учёта и анализа эффективности деятельности агрокластеров..... 33

Ochilov Ilhom Sayitkulovich

Improving the methodology of accounting and analysis of the effectiveness of agricultural clusters..... 67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 72

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OCHILOV ILHOM SAYITQULOVICH

**AGROKLASTERLAR FAOLIYATI HISOBI VA SAMARADORLIGI
TAHLILI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.DSc/Iqt715 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Isroilov Boxodir Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiev Farmonqul Tursunqulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamatqulov Murodjon Shukurovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mavlonov Normo'min Normamatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tashkil etilgan bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil «__» ___soat___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (71) 239-28-72; Faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (71) 239-28-72; Faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya aftoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__» _____-raqamli reestr bayonnomasi).

S.U.Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.A.Xasanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon aholisining yildan-yilga o'sib borishi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosini kundan-kunga dolzarblashuviga sabab bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, BMT va dunyo mamlakatlari tomonidan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir qo'llanilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan mazkur yo'nalishdagi ishlarda ijobiy natijaga erishish hamon past darajada bo'lib qolmoqda. FAO tadqiqotlariga ko'ra, «yer sharida 820 milliondan ortiq kishi to'yib ovqatlanmaslikdan qiynaladi va bu ko'rsatkich 2050-yilga borib 2 milliardga yetishi mumkin. Dunyo aholisining har uchtadan bittasi to'laqonli ratsion asosida ovqatlana olmaydi va 5 yoshgacha bolalar o'limining 45 foizi to'yib ovqatlanmaslik natijasida yuz beradi va har yili 3,1 million bola shu sababli olamdan o'tadi»¹. Bu esa aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji, ayniqsa, belgilangan me'yoriy talablarga javob beradigan, gigienik jihatdan toza, tabiiy vitaminlarga boy mahsulotlar bilan ta'minlash masalasi davlatlarning eng muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Jahonda global raqobat va integratsiya jarayonlarining keskinlashuvi sharoitida agroklasterlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Klasterlar faoliyatini tasniflash hamda uni tashkil etishning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, agroklasterlar faoliyati tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqish, moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, agroklasterlar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, agroklasterlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish, mazkur jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi»da keltirilganidek, «qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi qishloq xo'jaligi raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahsulotlarni daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish, ya'ni yig'ish, tashish, saqlash, qaytaishlash, qadoqlash va sertifikatlash zanjirida integratsion aloqalarning yetarli taraqqiy etmaganligi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini cheklayotganligi»² qayd etilgan. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saralash va saqlash xizmatlari talab darajasida emasligi hosilning qariyb 30 foizi isrof bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yetishtirilayotgan sabzavot mahsulotlarining bor-yo'g'i 3-4 foizi, mevaning 11 foizi eksport qilinmoqda. Agrar tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, global, yashil va raqamlashayotgan iqtisodiyotlar sharoitida agrar sohani tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda ular samaradorligini takomillashtirish

¹ Muallif hisob-kitoblari (<http://www.fao.org/sustainable-development-goals> ma'lumotlari asosida).

² <https://lex.uz/docs/4567334> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.

istiqbollari tadqiq qilinmagan, jumladan, bu borada innovasion jarayonlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti yetarli darajada o'rganilmaganligi, yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqni shakllantirish va yuqori iqtisodiy samaradorlikga erishish, sohaga davlat xususiy-sheriklik mexanizmlarini joriy etish, ya'ni agrar tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, 2017-yil 19-maydagi PQ-2978-son «Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi-ning innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamacining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi cub'ektlar faoliyati camaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'ricida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanish dasturlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Agrar tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlilining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning ilg'or ilmiy-tadqiqot markazlarida, jumladan, The Centre for the Analysis of Investment Risk (CAIR), The University of Oxford, Economist Intelligence Unit (EIU) (Buyuk Britaniya), Food and Agriculture Organization of the United Nations, Brazilian Association of Vegetable Oil Producers, Brazilian Agricultural Research Corporation (Braziliya), International

³The International Agricultural Trade Research Consortium (IATRC). The Impact of Pillar II Funding Validation from a Modelling and Evaluation Perspective, Schroeder, Gocht, and Britz 2015, and Economic Research Service (ERS), Agricultural taxation under structural adjustment [2008], Current fiscal issues fiscal monitor: policies for the recovery (2019), Fiscal Monitor: Fiscal Policy from Pandemic to War (2020) ҳамда <http://www.fao.org>, www.sardc.net; <https://www.weforum.org>; www.harvard.edu; <https://www.piie.com>; <https://www.uchicago.edu>; <http://unctad.org>; <https://www.bankofamerica.com>; <http://www.weforum.org>; <http://www.beri.com>; <https://www.controlrisks.com>; <http://www.eiu.com>; <https://www.euromoney.com>; www.institutionalinvestor.com; <https://www.prsgroup.com>; <https://www.moodys.com>; <https://www.standardandpoors.com>; <https://www.atkearney.com>; www.ox.ac.uk; <https://raexpert.ru>; <https://www.tsue.uz>; <https://imrs.uz>; <https://www.stat.uz>; <https://www.tdau.uz> интернет манбалар маълумотлари асосида тайёрланган.

Centre for Tropical Agriculture, Canadian International Development Agency, The Fraser Institute (Kanada), Santa Cruz Agricultural Development Foundation (Boliviya), Good Agricultural Practices, Global Partnership for Good Agricultural Practices, Indian Council of Agricultural Research (Indiya), Inter-American Institute for Cooperation on Agriculture, Agricultural Quality and Safety Institute of the province of Mendoza, International Trade Centre, Pennsylvania State University, University of Texas at Austin (AQSh), National Institute of Agricultural Technology (Argentina), United States Department of Agriculture, World Bank Institute, Institute for Strategy and Competitiveness at Harvard Business School, Agricultural and Food Engineering Technologies Service of FAO, United States Agency for International Development's (USAID), The University of Chicago, Regional Economic Development Institute (REDI), Bank of America World Information Services, Business Environment Risk Intelligence (BERI), Moody's Investor Service, Standard & Poor's Ratings Group (S&P), The United Nations Commission on Sustainable Development (UN CSD), Harvard University, Euromoney Institutional Investor (PLC), United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (Shveysariya), Montpellier Business School (Frantsiya), International Country Risk Guide (ICRG) (Avstraliya), Interfaculty Centre for Agrarian History, Rural History at the University of Leuven (Belgiya), Netherlands Agricultural Historical Institute (Niderlandiya), Royal Netherlands Academy of Arts and Sciences (Niderlandiya), Xalqaro agrar ta'lim akademiyasi (Ekaterinburg), Bryansk davlat agrar universiteti (Bryansk), Krakov iqtisodiyot universiteti (Polsha), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) huzuridagi ilmiy-tadqiqot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, K.A.Timiryazov nomidagi Rossiya davlat agrar universiteti, N.I.Vavilov nomidagi Saratov davlat agrar universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati moliya universiteti, Ekspert RA (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent davlat agrar universitetlari tomonidan agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishida tadqiqotlar amalga oshirilmogda.

Jahonda agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan bir qator ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan, 2014-2023 yillarda Meksikada qashshoqlik darajasini 5 foizga qisqartirishga erishilgan (Statistika va geografiya milliy instituti, Meksika); Argentina va Braziliyada kambag'allikning o'sish darajasi to'xtatilishi asoslangan (Statistika va aholini ro'yxatga olish milliy instituti, Argentina, Braziliya geografiya va statistika instituti, Braziliya); davlat xarajatlari doimiyliigi va o'zgaruvchanligi tadbirkorlarning bozordagi faolligi va iqtisodiy o'sishga ta'siri asoslangan (Economic Research Service, AQSh); qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish mexanizmi; qarzdorlikni garov va kafolat tizimi asosida kechiktirishga ruxsat etish mexanizmi ishlab chiqilgan (Davlat boshqaruvi akademiyasi va Fiskal institut, O'zbekiston). Shuningdek, Yevropada agrobiznes klasterlari (Niderlandiya), agroklastlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari (Belgiya), innovatsion klasterlar faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmlari (Ukraina), agrosanoat tarmog'idagi klasterlar uyushmasining tashkiliy-iqtisodiy modeli (Belorusiya), agrobiznes klasterini shakllantirish va

raqobatbardosh qiymat zanjirini rivojlantirish (Mali), agroklasterlar rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy raqobatbardoshlik (Italiya), agroklasterlarni moliyalashtirish masalalari (Rossiya), agroklasterlarning biznes tarmog'i (Gresiya), agroklasterlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tasniflash xususiyatlar (Indoneziya), agroklasterlarni boshqarishni takomillashtirish, funksional qiyosiy yondashuv (Ukraina), innovatsion klasterlarda qishloq xo'jaligi qiymat zanjirini yaratish (AQSh), Yevropa mamlakatlari qishloq xo'jaligi klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy tahlili (Germaniya) bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu tadqiqotlarda bozor konyunkturasi o'zgarishlari asosida kafolatlangan (guaranteed "support price") va eng kam me'yoriy narxlar (minimum legal price) belgilashni moliyalashtirish (AQSh), qishloq xo'jaligi sohasi sub'ektlari daromadlari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda CAPRI-RD modelidan foylanish (Germaniya); bioyoqilg'idan foydalanish uchun davlat subsidiyasi imtiyozlarini joriy etish samaradorligi (Evropa Ittifoqi), to'lov qobiliyati va qarz olish imkoniyati (Euromoney, London); ekologik muammolarni hal qilish, jamg'arish normasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik usullar yordamida aniqlash yo'llari ishlab chiqilgan (International Monetary Fund).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida agroklasterlarni tashkil etish, ularni moliyalashtirish mexanizmlari, tashkiliy-huquqiy faoliyatini tahlil qilish kabi masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Jumladan, klassik iqtisodiyot namoyondalari M.Porter, A.Paltariyxin, S.I.Rekord, S.F.Pyatinkin, T.P.Biykova va boshqalarning asarlarida klasterlarning moliya resurslari va mexanizmlari, jumladan klasterlashtirishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari keng tadqiq etilgan⁴.

Chet el iqtisodchi olimlaridan A.V.Golubev, L.V.Щukina, E.V.Dorjjeva, I.V.Kulaga, A.C.Boytssov, A.I.Kostyaev, V.A.Bondarenko, A.A.Biykova, Yu.L.Vladimirov, F.S.Gubaydullina, A.Koloshin, K.Razgulyaev, A.E.Romanov, V.P.Arashukov, V.Tarasenko, E.Yakovlevalar klasterlar faoliyati turlari va ularni moliyalashtirish manbalari, klasterlarning tasnifi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari, klasterlar faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy baholash uslubiyoti va usullarini baholash bilan bog'liq yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borganlar⁵.

Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va tashkiliy-iqtisodiy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan L.I.Abalkin, I.Ansoff, V.P.Barancheev, I.K.Belyaevskiy, J.Brayt, V.P.Krasovskiy, K.R.Makkonel, S.L.Bryu, M.Porter, I.S.Sandu, B.Santo, A.Smit, R.Taker, B.Tviss, R.A.Fatxudinov, V.F.Fedorenko, M.Xuchek, F.K.Shakirov, Y.Shumpeterlarning ilmiy ishlarida tadqiq

⁴Porter M. Clusters and the New Economics of Competition. HarvardBusinessReview. <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG> Портер М. Конкуренция: обновленное и расширенное издание; пер. с англ. М.: ООО «И.Д.Вильям», 2010 - 592 с., Палтарыхин А. Кластерный подход к развитию регионального АПК /Полтарыхин А. //Человек и труд. 2010. - № 6. - с. 67., Пятинкин С.Ф., Быкова Т.П. Развитие кластеров: сущность, актуальные подходы, зарубежный опыт. Минск: Тесей, 2008. - 72 с., Рекорд С.И. Развитие промышленно-инновационных кластеров в Европе: эволюция и современная дискуссия. СПб.: Из-во СПбГУЭФ, 2010. -109 с.

⁵Быкова А.А. Проблематика формирования инновационных кластеров / Быкова А.А.// Инновации. 2006. - № 2. - с. 38-43., Глотко А.В. Формирование и развитие кластера садоводства в региональном АПК: автореф. дисс. д-ра экон. наук: 08.00.05 / Глотко А.В. Новосибирск, 2010. - 48 с

etilgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizdan A.T.Kenjabaev, A.O.Sultonov, M.K.Tursunov, Sh.Xasanov, M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov, B.I.Isroilov, U.P.Umurzakov, Q.A.Choriev, Ch.Murodov, N.S.Xushmatov, S.S.G‘ulomov, Q.D.Mirzaev, T.X.Farmonov, B.B.Berkinov, R.X.Ergashev, A.M.Qodirov, B.F.Sultonov, S.N.Xamraeva va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan⁶.

Ammo izlanishlarimiz qishloq xo‘jaligida agroklastlar faoliyatini tashkil etish, uning yangi turlarini shakllantirish va rivojlantirish, agroklastlar faoliyatining tarmoqlar va mahsulotlarning iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni, mamlakat iqtisodiyotiga klasterlarni yanada keng jalb qilish va rag‘batlantirish mexanizmlarini, klasterlarning investitsiya imkoniyatlarini oshirish va ular faoliyati samaradorligini takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar etarlicha tadqiq etilmaganligini ko‘rsatmoqda. Bu o‘z navbatida ushbu dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, dolzarbligi va zarurligini asoslashga xizmat qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

klasterlar nazariyasini tadqiq etish asosida klasterlar faoliyatini tasniflash hamda uni tashkil etish va ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va uni takomillashtirish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyati tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligini baholash to‘g‘risidagi qarashlarini tahlil qilish;

agroklastlar faoliyati tashkiliy-iqtisodiy holatini baholash ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyati moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganish hamda ularni tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

agroklastlar faoliyati samaradorligini kompleks ko‘rsatkich asosida baholash uslubiyotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog‘liq agroklastlar faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, monografik

⁶Кенжабаев А.Т., Султонов А.О. Агрокластеризация – важнейший инструмент экономии водных ресурсов //Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума. – 2019. – С. 105.

kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, prognozlash va boshqa iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "klaster" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ma'lum bir hududda joylashgan, bozor qonuniyatlari asosida hamkorlik qiladigan va bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazadigan, yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhi tuzilishiga ko'ra uchta asosiy darajani qamrab olishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "agroklasterning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bu boradagi mavjud metodologiyaga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

xususiy kapital tarkibida maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish maqsadida 8821-"Texnika xarid qilishga subsidiyalar", 8822-"Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga subsidiyalar", 8823-"Yerdan foydalanish va o'zlashtirishga subsidiyalar" ishchi schyotlarini joriy etish orqali agroklasterning davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar ustidan nazorat o'rnatish va moliyaviy hisobot axborotlarini to'g'ri shakllantirish asoslangan;

agroklasterning yuqori talabga ega qo'shimcha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni hisobini yuritishda 2311-"Konus tayyorlash xarajatlari", 2312-"Qop tayyorlash xarajatlari", 2313-"Sellofan paket ishlab chiqarish xarajatlari" ishchi schyotlarini joriy etish orqali agroklasterning yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobining shaffofligini va mahsulot tannarxining to'g'ri aniqlanishini ta'minlash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlari suv tejoychi texnologiyalarga investitsiya jalb qilish hisobiga yalpi hosildorligi va samaradorlikni oshirish bo'yicha 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari integrallangan o'zgaruvchan o'rtacha qiymatlarning avtokorrelyatsiya modeli asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining tayyor mahsulotga qo'shgan hissasiga qarab mos ravishda taqsimlash taklif etilgan;

agroklasterning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida klasterga a'zolik hamda mahsulot etkazib berish bitimlari tuzishda sub'ektlar erkinligi va mustaqilligini ta'minlash tartibini erkin tanlash huquqini qonun me'yorlari bilan belgilab qo'yish asoslab berilgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar (agroklasterning er maydoni, agroklasterning soni va investitsiyalar hajmi) ta'siri o'zgarishi natijasida erishiladigan agroklasterning mahsulotlari miqdorining o'sishi ekonometrik tahlil (ARDL modeli) asosida ishlab chiqilgan;

agroklasterning faoliyati samaradorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimidan (11 ta ko'rsatkich) foydalanish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida olingan ilmiy

natijalarning ishonchligi taniqli xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi-olimlarining agroklastlar tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligi tahlilini takomillashtirishga doir muammolar hamda ular echimi xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, shuningdek, nazariy xulosalar xalqaro moliya institutlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va "O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" Uyushmasi amaliy ma'lumotlaridan foydalanib asoslanganligi hamda ushbu ishlanmalar amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan agroklastlarning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini kengaytirish, qonun hujjatlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati agroklastlarning tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy muammolarini hal etishga qaratilgan dastur va "Yo'l xaritalari" ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish, agrosanoat kompleksidagi davlat organlari va tashkilotlari mutaxassislari, shuningdek, oliy va kasb-hunar ta'lim muassasalarida "Operasion ishlab chiqarishni rejalashtirish", "Investitsiya loyihalari va risklarini boshqarish", "Boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslash" kabi yo'nalishlar bo'yicha talabalarni o'qitish, klaster yondashuvi asosida tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning malakasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirishga doir ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "klaster" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ma'lum bir hududda joylashgan, bozor qonuniyatlari asosida hamkorlik qiladigan va bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazadigan, yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhi tuzilishiga ko'ra uchta asosiy darajani qamrab olishi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya etilgan "Moliya asoslari" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhi tuzilishiga ko'ra uchta asosiy darajani qamrab olishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "klaster" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "agroklastlarning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash" tushunchasining iqtisodiy mazmunini bu boradagi mavjud metodologiyaga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari uchun

tavsiya etilgan “Moliya asoslari” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko‘rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan “agroklasterning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

xususiy kapital tarkibida maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish maqsadida 8821-“Texnika xarid qilishga subsidiyalar”, 8822-“Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga subsidiyalar”, 8823-“Yerdan foydalanish va o‘zlashtirishga subsidiyalar” ishchi schyotlarini joriy etish taklifi to‘g‘risidagi taklifi “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasining 2023-yil 24-maydagi 02/22-378-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklasterning davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar ustidan samarali nazoratning o‘rnatish va moliyaviy hisobot axborotlarini to‘g‘ri shakllantirish imkoni yaratilgan;

yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish maqsadida 2311-“Konus tayyorlash xarajatlari”, 2312-“Qop tayyorlash xarajatlari”, 2313-“Sellofan paket ishlab chiqarish xarajatlari” ishchi schyotlarini joriy etish taklifi “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasining 2023-yil 24-maydagi 02/22-378-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklasterning yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobining shaffofligini ta‘minlash va mahsulot tannarxining to‘g‘ri aniqlash imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlari suv tejoychi texnologiyalarga investitsiya jalb qilish hisobiga yalpi hosildorligi va samaradorlikni oshirish bo‘yicha integrallangan o‘zgaruvchan o‘rtacha qiymatlarning avtokorrelyatsiya modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasi faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasining 2023-yil 24-maydagi 02/22-378-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklasterning va ular tarkibidagi sub‘ektlar moliyaviy-iqtisodiy faoliyati barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilishi hamda klasterlar faoliyati samaradorligini o‘rtacha 7 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda, ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilib ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy mazmuni bo‘yicha jami 47 ta, jumladan, Scopus, Web of Science va xalqaro indekslangan ilmiy nashrlarda 21 ta xorijiy maqolalar, 3 ta monografiya (shundan bitta yakka mualliflikda), 12 ta OAK ro‘yxatidagi jurnallarda maqolalar hamda 11 ta mahalliy va xalqaro konferensiyada tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 202 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot dolzarbligi va ahamiyati, maksadi, vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va tadqiqotning tarkibiy tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Agroklastlar faoliyati samaradorligining nazariy asoslari va agrar soha rivojlanshidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda agrar sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bosqichlari va uning iqtisodiyot rivojlanishdagi ahamiyati, klasterlar nazariyasi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, agroklastlar tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholashning xorij tajribalari tahlili tadqiq qilingan.

“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasida” uni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari: “aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash; qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish; soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish; davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish; qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish”⁷ belgilangan. Bugungi kunda mamlakatimizda 136 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularga jami 1033 mln. gektar er maydonlari birlashtirib berilgan. Lekin amalga oshirilgan ishlar natijalari tahlili sohani rivojlantirishning strategik vazifalari ijrosini ta‘minlashga nazariy va ilmiy yondoshuvlar zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, mehnat unumdorligining pastligi va ishlab chiqarish madaniyatining qo‘lqo‘lqligi sabab donning 20 foizi, kartoshkaning 40 foizi, sabzavot mahsulotlarining 33 foizi iste‘molchilarga etmasdan nobud bo‘ladi⁸. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash texnologiyasi juda orqada qolgani tufayli har yili kartoshka, tomat, karam, lavlagi, sabzi hamda boshqa sabzavot va mevalarning 20-40 foizi isrof bo‘lmoqda. Jahon bozorini o‘zlashtirish ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘rinishi bilan bog‘liq. Bunda mahsulotlarni navlarga ajratish, o‘rash, qadoqlash va iste‘molchiga o‘z vaqtida etkazib berish nazarda tutilmoqda.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi ham miqdor, ham samaradorlik jihatidan rivojlanmoqda. «Klaster tizimi orqali yuqori unumli texnika va chuqur qayta ishlash kirib kelmoqda»⁹.

2023-yilda sohada ishlab chiqarish 4,1 foizga o‘sib, 426 trillion so‘mni tashkil qilgan. Eksport esa qariyb 2 milliard dollarga etgan. 152 ming gektar bog‘ va tokzorlar barpo etilib, 185 ming tonna meva-sabzavot, 31 ming tonna go‘sht va 485

⁷<https://lex.uz/docs/4567334> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.


⁸<https://parliament.gov.uz/upload/iblock/f31/hpymzyuxrtshfptgta%20pfkccpfxjknpeufdgecbttuu%20azkugd.pdf>

⁹ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024 yil 12 fevral kuni qishloq xo‘jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish. <https://president.uz/uz/7022>

ming tonna sutni qayta ishlash quvvatlari ishga tushirilgan.

Yaqin tariximizda ilk bor paxtadan 3 million 700 ming tonna, g'alladan 8 million tonna hosil olindi. Ularning hisobini yuritish va mahsulotni sotish tizimi to'liq raqamlashtirildi. Masalan, yurtimizda bir gektar maydondan olinadigan o'rtacha hosil ilg'or mamlakatlardagiga qaraganda kam. Lekin o'g'it ham, yoqilg'i ham, suv ham 2 karra ko'p ishlatiladi. Shu bois xorijdan serunum chigit va urug'lar olib kelib, dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o'qitib, hosildorlikni paxtada 50 tsentner, g'allada 100 tsentnerga etkazish mumkin.

Bugungi kunda, yangi tartib asosida, paxta xomashyosi birja orqali sotilmoqda. Nyu-York birjasida paxta narxi oshmoqda. G'allachilikda ham bozor munosabatlari hisobiga fermerlarning daromadi 2 baravar ortgan. Manfaatdorlikni yanada oshirish uchun paxtachilikda bo'lgani kabi, g'alla etishtirishda ham imtiyozli kreditni to'g'ridan-to'g'ri fermerga berish tizimi joriy qilinishi kerak. Bundan tashqari, davlat resursi uchun xarid qilingan bug'doyni daladan tashib kelish va saqlash xarajati ham to'liq byudjetdan qoplanishi lozim.



1-rasm. Klasterlarning dunyo iqtisodiyotidagi o'rni¹⁰

Bugungi kunga kelib klasterlash etakchi mamlakatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizini qamrab oldi. Korxonalarining yarmidan ko'pini birlashtirgan va yalpi ichki mahsulotning 60 foizini ishlab chiqaradigan klasterlar soni (380) bo'yicha etakchi AQSh hisoblanadi.

Xitoyda 3,5 million xodimga ega 30 mingga yaqin korxonani birlashtirgan 60 dan ortiq maxsus klasterlar mavjud bo'lib, ular yiliga taxminan 200 milliard dollarlik mahsulot sotadi. Italiyada 206 ta sanoat klasterida sanoatdagi barcha xodimlarning 43% ishlaydi. Klasterlarga kiruvchi korxonalar mamlakat eksportining 30 foizdan ortig'ini ta'minlaydi.

2018-2022 yillarda O'zbekistonda 506 ta klaster tashkil etildi. Bu esa so'nggi besh yil ichida mahsulot ishlab chiqarish hajmini 32 barobarga oshirish va 28,7 trln. so'mga etkazish imkonini berdi. Bunday natijaga erishishda 2018-2022 yillarda klasterlarni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining 5,2 baravar, sohada band bo'lganlar sonining 2,5 baravar ortishiga yordam berdi. Shu bilan birga, klaster tizimida mehnat unumdorligi 2018 yildan 2022 yilgacha 12,9 barobarga, investitsiyalar rentabelligi koeffitsienti esa 1,0 dan 1,4 ga oshdi. 2019 yilda mamlakatning sanoat mahsulotlari eksportida klasterlarning ulushi 5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 11,4 foizga etdi (2-rasm)¹¹.

¹⁰Muallif ishlanmasi.

¹¹Muallif ishlanmasi. (https://imrs.uz/archives/news/report_2023 ma'lumotlari asosida)



2-rasm. O'zbekistonda 2018-2022 yillarda tashkil etilgan klasterlarning iqtisodiyotdagi o'ri¹²

Fikrimizcha, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, qaytaishlash sanoatida samaradorlikni oshirish maqsadida tarmoqlar va hududlarda bir qator yangi ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Klaster nazariyasi asosan, xorijiy mamlakatlar olimlari asarlarida ko'proq uchraydi. Xususan, dastlab XIX asrda nemis iqtisodchisi Iogan Genrix fon Tyunen va uning izdoshlari V.Launxard hamda A.Veberlar tomonidan klaster nazariyasi ilgari surilgan. A.Marshall o'zining "Iqtisodiyot fani tamoyillari" (1890-1891 yy.) asarida tadqiqot ob'ekti sifatida shahar aglomeratsiyasi va sanoat hududlarini tanlab, o'tkazgan tadqiqotlarida samaradorlik va ishlab chiqarish geografik lokalizatsiyasi o'zaro bog'liqligini bayon etgan. U korxonalar va tashkilotlar samaradorligi ularning iqtisodiy hududlar yaqinida geografik joylashuviga bog'liqligini isbotlagan. B.Lundval va B.Yonsonlar esa klaster nazariyasi bilan bog'liq "rivojlanish bloklari" kontsepsiyasini taklif etgan hamda soha yoki hududiy ishlab chiqarish birlashmalari, butun mamlakat aholisini uzluksiz o'qitish jarayoni milliy iqtisodiy yuksalish va raqobatbardoshlik manbai ekanligini ta'kidlaganlar¹³.

Klaster nazariyasining zamonaviy talqini XX asrning 80-yillarida to'laqonli shakllandi. Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter klaster nazariyasi asoschisi, deb e'tirof etiladi. Uning fikricha, "Klaster - bu hududiy (geografik) jihatdan bir-biriga qo'shni, o'zaro bog'langan, ma'lum sohada faoliyat ko'rsatuvchi, umumiy maqsad yo'lida bir-birini to'ldiruvchi kompaniya va u bilan bog'liq tashkilotlar guruhidir".

Ushbu ta'riflar o'z vaqtida yaxshi ishlab chiqilgan, ammo yagona qiymat zanjirida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari inobatga olinmagan. Shu munosabat bilan, "klaster" atamasiga yangi ta'rif ishlab chiqdik.

Klaster – ma'lum bir hududda joylashgan, bozor qonuniyatlari asosida hamkorlik qiladigan va bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazadigan, yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhidir.

Nazariy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, har qanday klaster tuzilishi uchta asosiy darajani o'z ichiga oladi (3-rasm).

¹²Muallif ishlanmasi.

¹³Маршалл А. Принципы экономической науки. М.: Прогресс, 1993 г.



3-rasm. Klasterning asosiy darajalariga ko`ra tuzilishi¹⁴

Birinchi daraja yoki "klaster yadrosi" - ishlab chiqaruvchi kompaniya bo'lib, unga mahalliy (lokal) bozorda faoliyat yuritadigan firmalar va o'z mahsulotlarini (tovarlar yoki xizmatlarini) mintaqadan tashqariga eksport qiluvchi etakchi firmalar kiradi. Ular o'z mahsulotlarini (xizmatlarini) milliy va jahon bozorlariga eksport qiladigan etakchi firmalar bo'lib, ular butun klasterning iqtisodiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi va mintaqaga moliyaviy oqimlarni jalb qiladi. Shu sababli, bunday etakchi kompaniyalar klasterda ustunlik qiladi.

Ikkinchi daraja - bu klaster yadrosi atrofidagi guruhlar, unga komponentlar, texnologik asbob-uskunalar, materiallar, xom ashyo va boshqalarni ishlab chiqaruvchi tegishli kompaniyalar kiradi. Shu bilan birga, bu guruhga yirik, o'rta va kichik korxonalar kirishi ham mumkin. Ko'p hollarda klasterlarda kichik va o'rta biznesning paydo bo'lishi etakchi firmalarning biznes jarayonlari outsourcingi bilan bog'liq. Ma'lumki, kichik ishlab chiqarish ob'ektlari moslashuvchan bo'ladi, ular yangiliklarni tezroq kiritadilar, bundan tashqari, bu erda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi bazaviy korxonaga qaraganda arzonroq bo'ladi. Klaster shakllanishida katta biznesning roli kichik biznes va o'rta korxonalarni faol hamkorlik va subpudrat aloqalari asosida ishlab chiqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Shu sababli kichik biznesning saqlanib qolishi va o'sishi uchun klasterda paydo bo'ladigan kooperativ aloqalar muhim ahamiyatga ega. Aytishimiz mumkinki, klaster - bu globallashuv sharoitida kichik biznesni saqlab qolish usulidir.

Uchinchi daraja - klasterning iqtisodiy infratuzilmasini tashkil etuvchi xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar - ilmiy-texnik va xizmat ko'rsatish markazlari; moliya-kredit tashkilotlari; investitsiya fondlari; oliy, o'rta maxsus va o'rta texnik ta'lim muassasalari; tadqiqot tashkilotlari; jamoat tashkilotlari; sug'urta va konsalting kompaniyalari va boshqalar.

Xorijiy mamlakatlarda xizmat ko'rsatish klasterlarini o'rganishga asoslanib, biz xizmat ko'rsatish sohasi klasteriga quyidagicha ta'rifni beramiz: xizmat ko'rsatish sohasi klasteri - bu ayni bir mintaqada joylashgan hamda ushbu mintaqadagi xizmatlar ko'rsatish bilan raqobatlashadigan, hamkorlik qiladigan va o'zaro ta'sir o'tkazadigan ushbu mintaqadagi va undan tashqaridagi iste'molchilarga ma'lum bir sohadagi ehtiyojlarini qondiradigan xizmatlar ko'rsatuvchi mustaqil kompaniyalar guruhidir.

Shunday qilib, xizmat ko'rsatish sektori klasterining asosini xizmat ko'rsatish sohasiga mansub kompaniyalar tashkil qiladi, ularning o'ziga xos xususiyati xizmatning nomoddiy va ko'rinmas mahsulotligidir. Klasterning ikkinchi darajasini

¹⁴Muallif ishlanmasi.

xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar namoyish etadi. Ba'zi xizmat ko'rsatish klasterlarida sanoatning ayrim turlari o'z tarkibiga kiritilishi mumkin, lekin bu kamdan - kam hollarda bo'ladi, masalan, turistik klasterga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan umumiy ovqatlanish korxonalari kiradi.

Bizning fikrimizcha, xizmatlar sektori klasterining asosiy ajralib turadigan xususiyati shundan iboratki, unga kiritilgan kompaniyalar yagona qiymat zanjiri doirasida ishlaydilar, yakuniy xizmatni mutlaqo mustaqil ravishda amalga oshiradilar, shu bilan birga, klaster kompaniyalari iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan xizmatlar bilan maksimal darajada ta'minlaydilar. Boshqacha aytadigan bo'lsak, klaster korxonalari bir-biri bilan raqobatlashib, bir vaqtning o'zida o'zaro aloqada bo'lib, ehtiyojlarni qondiradigan xizmatlar turlarini taqdim etadilar.

Qishloq xo'jaligida davlat-xususiy sherikchilik tizimining rivojlanish darajasining xorijiy tajribasi 1-jadvalda keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dunyo davlatlarida davlat-xususiy sherikchilik tizimi 19 asrdan shakllana boshlab, bugungi kunda bu borada qatta tajriba to'plangan. Fikrimizcha, xorijiy tajribalarni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirgan holda qo'llash yaxshi natijalar beradi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Klaster va manfaatdorlik - O'zbekiston qishloq xo'jaligining kelajagi. Ilm-fan va innovatsiyalarni joriy etmay turib, bu sohani raqobatbardosh qilib bo'lmaydi"¹⁵.

Agroklasterlar, asosan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yaxshi rivojlangan bo'lib, ushbu rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va ular faoliyatini mamlakatimiz iqtisodiyotiga transformatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

1-jadval

Qishloq xo'jaligida davlat-xususiy sherikchilik amaliyoti rivojlanishi bo'yicha xorijiy tajribalar¹⁶

Mamlakatlar	DXShning paydo bo'lishi	Qishloq xo'jaligiga ta'siri	Amalga oshirilgan loyihalar soni
Germaniya, Fransiya	XIX asrning oxiri XX	Mamlakatda davlat nazoratiga o'tkazilgan	135
AQSh	1980-1990	Xususiy tadbirkorlik tashabbusi	128
Yaponiya	1980-2000 yillar	Davlat nazorati va xususiy moliyalashtirish	149
Rossiya	2000 yildan beri	Davlat nazorati	80

Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroklasterlar moliyaviy tahlili va samaradorligini baholash keng qamrovli yondashuv talab etiladigan jarayon hisoblanadi.

M.Porter dunyoning 10 ta mamlakatining 100 dan ortiq tarmoqlarini tahlil qilib, turli mamlakatlarda tartibsiz faoliyat yuritayotgan korxonalariga qaraganda bir mamlakat hududida klasterga birlashgan korxonalar yuqori darajali raqobatga ega bo'lishi mumkinligini isbotlagan¹⁷.

¹⁵ "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 13 oktyabr. <https://xs.uz>

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

¹⁷ Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida klasterlashtirish, asosan, 2000-yildan boshlanib, 5 ta bosqichni o'z ichiga oladi. 2008-yilda "Klasterlar to'g'risidagi Yevropa memorandumi" qabul qilindi va aynan shu yildan klasterlar faoliyatini tahlil qilish, ular to'g'risida axborot-tahliliy materiallar bazasi yaratila boshlandi. Shunga ko'ra, Yevropa mamlakatlari ichida agrosanoat klasterlari soni bo'yicha Gretsiya 36 ta, Ispaniya 35 ta, Bolgariya 22 ta, Frantsiya 20 ta, Polsha 19 ta, Ruminiya 16 ta, jami tarmoq klasterlari sonida agrosanoat klasterlari salmog'i bo'yicha Bolgariya 45,8 foiz, Gretsiya 45,0 foiz, Ispaniya 23,8 foiz, Islandiya 20,0 foiz, Vengriya 18,6 foiz, Niderlandiya 14,5 foiz, Frantsiya 12,1 foiz va Polsha 11,8 foiz bilan yetakchilik qilgan¹⁸.

Daniya agroklasteralari kamida 5 ta elementli tuzilmadan tashkil topadi: xomashyo yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari; qayta ishlash korxonalari; xizmat ko'rsatish infratuzilmalari; ilmiy tadqiqot va o'quv muassasalari; institutsional tuzilmalar (davlat boshqaruv organlari, uyushmalar, jamg'armalar).

Ilmiy tadqiqot muassasalari klaster a'zolarini innovatsion g'oya va ishlanmalar bilan ta'minlab, bunda innovatsion mahsulotlar yaratishga yo'naltiriladigan ilmiy tadqiqot xarajatlarining 80 foizi va maslahat xizmatlari haqining 10 foizi davlat tomonidan qoplanadi.

Fikrimizcha, jahon amaliyotini qo'llash asosida klasterlar tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholashning eng muhim vositalari quyidagilar bo'lishi lozim: to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish (subsidiyalar, kreditlar), bu yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish xarajatlarining 50 foizini o'z ichiga oladi (Frantsiya, AQSh, Rossiya va boshqa mamlakatlar); korxonalar uchun soliqqa tortishni osonlashtirish, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalarni soliqqa tortiladigan summalardan chiqarib tashlash, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini imtiyozli soliqqa tortish (Yaponiya); intellektual mulk va mualliflik huquqlarini himoya qilishni qonunchilik bilan ta'minlash;

kreditlar berish, shu jumladan foizlarsiz (Shvetsiya);

ilmiy tadqiqot va ishlanmalar uchun maqsadli subsidiyalar (barcha rivojlangan mamlakatlarda amalda);

mumkin bo'lgan tijorat tavakkalchiligini hisobga olgan holda innovatsiyalarni joriy etish fondlarini yaratish (Angliya, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Niderlandiya, Rossiya);

innovatsiyalar qiymatining 50 foizgacha grantlar (Germaniya);

yakka tartibdagi ixtirochilar uchun davlat bojini kamaytirish va soliq imtiyozlari berish (Avstriya, Germaniya, AQSh, Yaponiya va boshqalar), shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy sug'urta qilish uchun maxsus infratuzilmani yaratish (Yaponiya);

agar ixtiro energiyani tejashga tegishli bo'lsa, to'lovlarni kechiktirish yoki ulardan ozod qilish (Avstriya);

yakka tartibdagi ixtirochilarning arizalari bo'yicha bepul ish yuritish, patent vakillarining bepul xizmatlari, yig'implarni to'lashdan ozod qilish (Niderlandiya,

¹⁸Чирков Е.П., Волкова Т.И. Зарубежный опыт формирования и развития агропромышленных кластеров и его адаптация в Российскую практику. // Теория и практика мировой науки, № 2, 2016. С. 16-18.

Germaniya);

xavflarni kamaytirish va xavfli yo‘qotishlarni qoplash bo‘yicha davlat dasturlari (Yaponiya);

chet ellik iqtidorlarni izlash va jalb qilish dasturlari, shu jumladan, vizalarni tezlashtirish, o‘qish uchun stipendiyalar taqdim etish va yashash sharoitlarini yaxshilash (Yaponiya, AQSh, Avstraliya).

Shunday qilib, klasterlar tahlili bo‘yicha eng muhim uslubiy hujjat Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar tomonidan 2006-yilda imzolangan “Evropa memorandumi”dir. Ushbu memorandunga ko‘ra, klaster - innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratuvchi, ko‘plab kanallar orqali bir-biri bilan bog‘langan ixtisoslashgan kompaniya va muassasalarning hududiy konsentratsiya markazlaridir.


“Evropa memorandumi”ga ko‘ra, klasterlar samaradorligi tahlili ikki bosqichda (mikro darajali tahlil, mintaqaviy tahlil) amalga oshiriladi. Mikro darajali tahlil klasterni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, uning raqobatbardoshligini oshirish, korxonalar samaradorligini kuzatish va baholash, korxonalar xodimlarini rag‘batlantirishdan iborat bo‘lsa, mintaqaviy tahlil esa mintaqada klasterlar yaratish uchun zaruriy shart-sharoitlarni aniqlash; mintaqaviy klaster strategiyasini ishlab chiqish; klaster strategiyasi samaradorligini monitoring qilish va baholashni o‘z ichiga oladi. Uslubiy yondashuvga ko‘ra, “klaster” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ma‘lum bir hududda joylashgan, bozor qonuniyatlari asosida hamkorlik qiladigan va bir-biriga o‘zaro ta‘sir o‘tkazadigan, yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar guruhi tuzilishiga ko‘ra uchta asosiy darajani qamrab olishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar guruhi tuzilishiga ko‘ra uchta asosiy darajani qamrab olishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “klaster” tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratiladi.

Dissertatsiya ishining **“Agroklasterlar tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini baholash”** nomli ikkinchi bobida agroklasterlar tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, agroklasterlar tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlari tahlili hamda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va agroklasterlari moliyaviy faoliyati samaradorligining ekonometrik tahlili tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda agroklasterlarni shakllantirish uchun quyidagi besh asosiy bosqichni amalga oshirish taklifi asoslab berildi: 1-bosqich: tashabbus guruhini yaratish; manfaatdor tomonlarni jalb qilish. 2-bosqich (Diagnostika va prognozlash bosqichi): marketing tadqiqotlari; ishtirokchilarni aniqlash; mumkin bo‘lgan ishtirokchilar motivlarini o‘rganish; kapital va ishtirokchilar resurslarining mavjudligini tahlil qilish; keyingi rivojlanish istiqbollari. 3-bosqich (Strategiyani aniqlash bosqichi): agroklasterni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish; strategiyani amalga oshirish dasturini ishlab chiqish; SWOT tahlili. 4-bosqich (Agroklasterni shakllantirish bosqichi): tashkiliy tuzilmani yaratish; boshqaruv tuzilmasini (agroklasterning muvofiqlashtiruvchi kengashi) tashkil etish; loyihalarni ishlab chiqish. 5-bosqich Samaradorlikni monitoring qilish va baholash bosqichi:

strategiyani amalga oshirish samaradorligini baholash; belgilangan maqsadlar va erishilgan natijalarga muvofiqligi; strategiyani takomillashtirish va faoliyatni tuzatish. Ishlab chiqarish va resurslardan foydalanish darajasi, raqobat darajasi, marketing darajasi, hamkorlik darajasi kabi to'rtta eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash metodikasi uchun tavsiya qilamiz. Ushbu samaradorlik ko'rsatkichlari agroklasterni tashkil etish va iqtisodiy ko'rsatkichlarning muhim jihatlarini qamrab olgan holda uning samaradorligi baholash uchun har tomonlama qulay hisoblanadi. Agroklasterning faoliyat davrini inobatga olgan holda, strategiya rejasini qayta ishlash maqsadida muntazam ravishda bir qator tadbirlarni amalga oshirish zarur. Strategik hujjatlarga kiritiladigan o'zgartirishlar barcha klaster a'zolari bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Bu esa butun klaster va uning a'zolarining samaradorligini baholash imkonini beradi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi va agroklastarlari tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy faoliyati ekonometrik tahlil qilinib, tadqiqot bo'yicha respublikamizdagi mavjud qishloq xo'jalik tashkilotlari hamda agroklastarlarning moliyaviy faoliyati va unga ta'sirini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2001 yildan 2022 yilgacha, jami kuzatuvlar soni 22 ta iqtisodiy ko'rsatkichlaridan iborat ma'lumot manbalaridan foydalanildi.



4-rasm. Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarninig vaqt bo'yicha tahliliy grafik ko'rinishi¹⁹

4-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligi va agroklastarlar maxsulotlari, qishloq xo'jaligi va agroklastarlar tashkilotlariga qilingan investitsiya hajmi kabi omillar o'tmishda va boshlang'ich prognozlar o'sish tendentsiyasini nomoyon etgan. Qishloq xo'jaligi va agroklastarlar tashkilotlari er maydonlari tahliliy vaqt oralig'ida statsionarlik holatini ko'rsatgan hamda qishloq xo'jaligi va

¹⁹Muallif hisob-kitoblari.

agroklasterlar tashkilotlari tahliliy vaqt oralig'ida tendentsion pasayish chiziqlarni namoyish etgan.

ARDL model ekonometrik tenglamasi Stata dasturi asosida quyidagi jadvalda ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval

ARDL(2,2,2,0)modeli regression tenglama ko'rsatkichlari²⁰

ARDL(2,2,2,0) regression		Number of obs = 21				
Sample:2003 -2023		Root MSE= 0.1117				
R-squared = 0.7030		Log likelihood =23.017594				
Adj R-squared = 0.6600						
D.						
Agricul_prod	Coef.	Std.Err.	t	P>t	[95% Conf.	Interval]
ADJ						
Agricul_prod						
L1.	-0.832	0.186	-4.480	0.001	-1.241	-0.423
LR						
investment	1.095	0.051	21.430	0.000	0.982	1.207
Agricul_acreg	8.686	1.523	5.700	0.000	5.333	12.039
agricul_organ	0.165	0.116	1.430	0.081	-0.090	0.420
SR						
Agricul_prod						
LD.	0.479	0.194	2.470	0.031	0.051	0.907
investment						
D1.	-0.201	0.263	-0.760	0.461	-0.778	0.377
LD.	-0.461	0.250	-1.850	0.092	-1.011	0.089
Agricul_acreg						
D1.	-4.439	1.567	-2.830	0.016	-7.888	-0.990
LD.	-3.925	1.218	-3.220	0.008	-6.606	-1.245
_cons	-60.168	16.439	-3.660	0.004	-96.349	-23.987

Tadqiqot bo'yicha Milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi va agroklasterlar mahsulotlari, qishloq xo'jaligi va agroklasterlarga qilingan investitsiya xajmi, qishloq xo'jaligi va agroklasterlar er maydonlari hamda qishloq xo'jaligi va agroklasterlar ko'rsatkichlari o'zaro ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. ARDL (2,2,2,0) modeliga ko'ra,

1. Qishloq xo'jaligi va agroklasterlarga investitsiyalar hajmining 1 foizga o'sishi qishloq xo'jaligi va agroklaster mahsulotlarining 1,09 foizga oshishiga olib keladi. Bu investitsiyalar hajmi va mahsulot ishlab chiqarish o'rtasidagi ijobiy va proporsional bog'liqlikdan biroz ko'proq ekanligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, ushbu tarmoqlarga ko'proq investitsiyalar yuqori mahsulothajmini nomoyon etadi.

2. Qishloq xo'jaligi va agroklasterlar er maydonining 1 foizga oshishi qishloq xo'jaligi va agroklaster mahsulotlarining 8,68 foizga o'sishiga olib keladi. Bu er maydoni va mahsulot ishlab chiqarish o'rtasidagi muhim va jiddiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va agroklaster faoliyatiga mo'ljallangan er maydonlarining kengayishi mahsulot ishlab chiqarishning sezilarli darajada oshishiga olib kelishidan dalolat beradi, bu esa ushbu tarmoqlarda er resurslarining ahamiyatini aks ettiradi.

²⁰Muallif hisob-kitoblari.

3. Qishloq xo'jaligida agroklastlar sonining 1 foizga o'sishi qishloq xo'jaligi va agroklastlar mahsulotlarining 0,16 foizga o'sishiga olib keladi. Bu tashkilotlar soni va mahsulot ishlab chiqarish o'rtasidagi muhim korellatsion bog'liqlikdan dalolat beradi. Bu shuni anglatadiki, qishloq xo'jaligi va agroklastlar sonining ko'payishi ishlab chiqarish hajmining o'sishiga ijobiy hissa qo'shadi, investitsiyalar va er maydoni kabi boshqa omillarga ijobiy ta'sirni ifodalaydi.

4. Ushbu ekonometrik natijalar milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi va agroklastlar mahsulotlarini ishlab chiqarishda investitsiyalar, er maydoni va agroklastlar sonining muhimligini ta'kidlaydi. Ular ushbu tarmoqlarda ishlab chiqarish darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar haqida tushuncha beradi va tadqiqotchilar, amaliyotchilar va manfaatdor tomonlarni qishloq xo'jaligini rivojlantirish va investitsiyalar bilan bog'liq qarorlar qabul qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Uslubiy yondashuvga ko'ra, "agroklastlarning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bu boradagi mavjud metodologiyaga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirildi.

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan "agroklastlarning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratiladi.

Dissertatsiya ishining **"Agroklastlar faoliyati hisobi va tahlilining hozirgi holati hamda uni takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobida agroklastlar faoliyati hisobi va tahlilining o'ziga xos xususiyatlari, agroklastlar faoliyati hisobi va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish, agroklastlar faoliyati hisobiga ta'sir etuvchi omillar tahlili va ularni takomillashtirish tadqiq qilingan.

Agroklastlar faoliyati hisobi va tahlili – bu agroklastlarning buxgalteriya va analitik tizimida shakllangan boshqariladigan obyektlar va tashqi muhitning holati to'g'risida moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va uzatish jarayoni, shuningdek moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash uchun ishlatiladigan iqtisodiy tahlil usullari to'plamidir. Agroklastlar faoliyati hisobi tahlil va audit usullaridan foydalangan holda biznes jarayonlarini boshqarish imkonini yaratadi.

Agroklastlar faoliyati hisobi tahlili ushbu tarmoqlarning o'ziga xos tuzilishi va faoliyatidan kelib chiqqan holda qiymat zanjirining murakkabligi bilan alohida ajralib turadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, agroklastlar ko'pincha qiymat zanjirining ishlab chiqarishdan qayta ishlash va taqsimotgacha bo'lgan bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu har bir bosqichda xarajatlar va daromadlarni batafsil qayd etish va tahlil qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, xarajatlar va samaradorlikni hisobga olish, ya'ni xarajatlar va xizmatlarning aniq taqsimlanishi klasterdagi turli tadbirlarning

rentabelligini baholash uchun juda muhimdir. Bunga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlarni tahlil qilish, shuningdek, badal marjalarini aniqlash kiradi.

Agroklastlarda qishloq xo'jaligi texnikasi va mashinalariga ixtisoslashgan turli xil ta'mirlash ustaxonalari tashkil etiladi, masalan, qishloq xo'jaligi uskunalarni ta'mirlashga ixtisoslashgan mahalliy ustaxonalar.

Agroklastlarda logistika va avtomobil transporti samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turli xil tovarlar, shu jumladan, haroratga sezgir va kimyoviy mahsulotlar uchun maxsus transport vositalari, zamonaviy logistika markazlari yuqori sig'imli omborlar va blokli omborlar bilan keng qamrovli saqlash, avtomobil, temir yo'l va suv transportining kombinatsiyasi moslashuvchan va ekologik toza logistika imkonini beradi.

Agroklastlarda davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar ustidan samarali nazoratning o'rnatilishiga va moliyaviy hisobot axborotlarining to'g'ri shakllanishiga erishish uchun xususiy kapital tarkibida maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish bo'yicha 8800 - "Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar" tarkibidagi 8820 - "Subsidiyalar" schyotida 8821 - «Texnika xarid qilishga subsidiyalar», 8822 - «Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga subsidiyalar», 8823 - «Yerdan foydalanish va o'zlashtirishga subsidiyalar» ishchi schyotlarini joriy etish lozim, deb hisoblaymiz.

3-jadval

«Maroqand Sifat Tekstil» MChJda 8821-«Texnika xarid qilishga subsidiyalar», 8822-«Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga subsidiyalar», 8823-«Yerdan foydalanish va o'zlashtirishga subsidiyalar» ishchi schyotlari bo'yicha schyotlar korrespondensiyasi²¹

Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Summa, ming so'mda	Ishchi schyotlar korrespondensiyasi	
		Debet	Kredit
Texnika xarid qilishga, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga, yerdan foydalanish va o'zlashtirishga subsidiyalar ajratildi	114667	4890	8821, 8822, 8823
Texnika xarid qilishga, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga, yerdan foydalanish va o'zlashtirishga subsidiyalar olindi	114667	5110-5530	4890
Texnika xarid qilishga, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga, yerdan foydalanish va o'zlashtirishga olingan subsidiyalar ta'sisshilar qaroriga ko'ra rezerv kapitali tarkibiga o'tkazildi	114667	8821, 8822, 8823	8530

Agroklastlarda elektr energiyasi, gaz va suv ta'minoti qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ahamiyatli hisoblanadi. Ko'pgina agroklastlar energiya ehtiyojlarini qondirish uchun quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiyaga tayanadi. Bu nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytiradi, balki ekologik jihatdan foydalidir.

Yashilvodorod texnologiyalari qishloq xo'jaligi uchun katta imkoniyatlarga ega. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olinadigan yashil vodorod qishloq xo'jaligi

²¹Muallif hisob-kitoblari.

texnikasi va energiya ishlab chiqarish uchun yoqilg'i sifatida ishlatilishi mumkin. Agroklastarlarda suv ta'minotini ta'minlash uchun suvni samarali boshqarish juda muhimdir. Bunga yomg'ir suvlarini yig'ish tizimlaridan foydalanish, sug'orish texnologiyalari va suvni qayta ishlatish kiradi. Qishloq xo'jaligi chiqindilaridan biogazdan foydalanish energiya ishlab chiqarish va bir vaqtning o'zida chiqindilarni kamaytirishning barqaror usuli hisoblanadi. Biogaz qurilmalari qishloq xo'jaligi fermalarini ham elektr, ham issiqlik bilan ta'minlay oladi.

Shuningdek, agroklastarlarda yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobining shaffofligi ta'minlanishiga va mahsulot tannarxining to'g'ri aniqlashiga erishish uchun yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha 2300 - "Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar" tarkibida ochiladigan 2310 - "Sanoat mahsulotlarini tayyorlash bo'yicha yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari" schyotining tarkibida 2311 - «Konus tayyorlash xarajatlari», 2312 - «Qop tayyorlash xarajatlari», 2313 - «Sellofan paket ishlab chiqarish xarajatlari» ishchi schyotlarini joriy etish lozim, deb hisoblaymiz.

4-jadval

«Maroqand Sifat Tekstil» MChJda 2311-«Konus tayyorlash xarajatlari», 2312-«Qop tayyorlash xarajatlari», 2313-«Sellofan paket ishlab chiqarish xarajatlari» ishchi schyotlari bo'yicha schyotlar korrespondensiyasi²²

Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Summa, ming so'mda	Ishchi schyotlar korrespondensiyasi	
		Debet	Kredit
Konus, qop va sellofan paket ishlab chiqarishga materiallar sarflandi	105300	2311, 2312, 2313	1010
Konus, qop va sellofan paket ishlab chiqarishda ishlagan ishchilarga ish haqi hisoblandi	62000	2311, 2312, 2313	6710
Konus, qop va sellofan paket ishlab chiqarish bo'yicha ijtimoiy soliq hisoblandi	7440	2311, 2312, 2313	6410
Konus, qop va sellofan paket ishlab chiqarish bilan bog'liq amortizatsiya ajratmalari hisoblandi	14200	2311, 2312, 2313	0200
Konus, qop va sellofan paket ishlab chiqarishga boshqa xarajatlar hisoblandi	16800	2311, 2312, 2313	6900
Konus, qop va sellofan paket ishlab chiqarishga boshqa xarajatlar asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga o'tkazildi	205740	2010	2311, 2312, 2313

Agroklastarlarning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish va ularni moliyaviy baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etildi: moliyaviy omil (foydani oshirish, sof foyda; xarajatlarni kamaytirish, sotilgan mahsulot hajmida xarajatlar ulushi, 1 so'm sotilgan mahsulot uchun xarajatlar; ichki va jahon bozorida ulushning ortishi, mahsulot sotishdan olingan daromad); xaridorlar omili (sotilgan mahsulot hajmi va mahsulot sotishdan olingan daromad); ichki ishbilarmonlik muhiti (zamonaviy va ilg'or asbob-uskunalarni sotib olish, asosiy vositalarning balans qiymati; xarajatlarni boshqarish bo'yicha zamonaviy tizimni joriy qilish, mahsulot tannarxida operatsion xarajatlar ulushi; mahsulot tarkibi va assortimenti kengaytirish, mahsulot turlarining yangilanish tezligi); ta'lim va

²² Muallif hisob-kitoblari.

kadrlar salohiyatini oshirish (mavjud mehnat kollektivini saqlab qolish, ishchilar soni; mehnat unumdorligi va ish haqini oshiri, 1 ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, o‘rtacha ish haqi miqdori; ishchi xodimlarning o‘z ishidan qanoatlanish darajasini oshirish, ishlab chiqarishda yuz bergan noxush xodisalar soni).

5-jadval

O‘rtacha hosildorlik bilan investitsiyalarning regression tahlili²³

y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
x4	.045	.02	2.24	.027	.005	.084	**
x5	.27	.06	4.47	0	.151	.39	***
x6	-.61	.254	-2.40	.018	-1.112	-.108	**
Constant	18224.247	1300.848	14.01	0	15651.041	20797.453	***
Mean dependent var		22290.936	SD dependent var			12141.106	
R-squared		0.186	Number of obs			136	
F-test		10.026	Prob> F			0.000	
Akaike crit. (AIC)		2923.014	Bayesian crit. (BIC)			2934.665	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

$$Y = 0,045 * X_4 + 0,27 * X_5 - 0,61 * X_6 + 18224,24$$

O‘zbekiston Respublikasida paxta hosildorligi va yalpi hosiliga ta’sir etuvchi omillarni va prognozlarini ishlab chiqish maqsadida 136 ta klasterlar ma’lumotlari bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi: “Stata” dasturidan foydalanib o‘tkazgan ekonometrik tahlillarimiz natijasida agroklastlar tomonidan etishtiriladigan paxta yalpi hosiliga ekiladigan er maydoni, qishloq xo‘jaligi va sanoatga sarflanadigan mablag‘lar mos ravishda 0,84; 0,19; 0,21 korrelyatsiyaga ega bo‘lib, mazkur uchta omilning yalpi hosil o‘zgarishiga 72% ta’sir etishi aniqlandi; tanlab olingan uchta omilning yalpi hosilga ta’siri “Eng kichik kvadratlar” metodi bo‘yicha modellashtirilganda Gaus Markovning barcha shartlariga mos keldi va ishonchli model hosil qilindi. Natijada paxta yalpi hosilining o‘zgarishi paxta ekiladigan er maydoniga yuqori darajada bog‘liq bo‘lishi isbotlandi.

Ya’ni er maydonining 1 foizga oshishi yalpi hosilning 0,78 foiz ortishini ta’minlaydi. Sanoatga sarflanadigan mablag‘larning 1 foizga ortishi yalpi hosilning 0,11 foizga hamda qishloq xo‘jaligiga sarflanadigan mablag‘larning 1 foizga ortishi yalpi hosilning 0,108 foiz ko‘payishini ta’minlaydi; klasterlar tomonidan etishtiriladigan paxta hosilining yillik o‘rtacha hosildorligini jalb qilingan investitsiyalar orqali yanada ko‘paytirish mumkinligi ilmiy tadqiqot asosida isbotlandi. Bunda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga ko‘proq investitsiya qilinishi natijasida o‘rtacha hosildorlik 0,27 foizga ortadi. Erdan foydalanish va o‘zlashtirishga nisbatan kamroq investitsiya kiritilishi maqsadga muvofiq. Chunki o‘rtacha hosildorlik hamda erdan foydalanish va o‘zlashtirish o‘rtasida teskari korrelyatsiya mavjud; ishlab chiqilgan modellar ko‘rsatkichlari hamda ARIMA modelidan foydalanib, «Navbahor Tekstil» MChJ, «Baht-Textile» MChJ, «Maroqand Sifat Tekstil» MChJ va «Samarqand Kamalak Invest Tekstil» MChJ klasterlarining

²³Muallif hisob-kitoblari.

2024-2030 yillardagi o‘rtacha hosildorligi prognoz qilinganda 2030-yilda ularning har biri o‘rtacha 45,7 ts/ga hosildorlikka erishishi prognoz qilindi.

“Stata” dasturidan foydalanib, ARIMA metodini qo‘llab, 2024-2030 yillar uchun ishonchli prognoz qiymatlari aniqlandi.

6-jadval

2024-2030 yillardagi o‘rtacha hosildorlik bo‘yicha prognoz ma‘lumotlari²⁴, ts/ga

Yillar	«Navbahor Tekstil» MChJ	«Baht-Textile» MChJ	«Maroqand Sifat Tekstil» MChJ	«Samarqand Kamalak Invest Tekstil» MChJ
2024	39.0	36.7	36.9	36.8
2025	40.1	37.8	37.4	37.1
2026	41.5	38.1	39.1	37.8
2027	41.9	39.6	41.8	37.9
2028	42.6	41.2	43.5	38.1
2029	45.0	43.6	44.1	38.3
2030	46.5	45.4	45.7	41.8

Agroklasterlar faoliyati hisobi va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va optimallashtirilgan jarayonlar orqali qudagicha chora-tadbirlar belgilanishi tavsiya etildi: avtomatlashtirish va raqamlashtirish, hisob-fakturalar va to‘lovlarni qayta ishlash, tahlil va bashoratlash, firibgarlikning oldini olish, raqamli hisob-fakturani qayta ishlash, umumiy xizmat ko‘rsatish markazi tashkil etish.

Dissertatsiya ishining **“Agroklasterlar samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish”** nomli to‘rtinchi bobida agroklasterlar samaradorligini baholash tahlilining hozirgi holati, agroklasterlar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va ularni baholash metodologiyasi, agroklasterlar faoliyati va moliyaviy samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Klasterlar faoliyati samaradorligini baholashning kompleks ko‘rsatkichidan, ya‘ni klasterlar faoliyati samaradorligini baholash natijalariga ko‘ra tizim korxonalari reytingini aniqlash va reyting ko‘rsatkichlari asosida rag‘batlantirish tartibidan foydalanish natijasida «Navbahor Tekstil» MChJ paxta-to‘qimachilik klasteri tizimidagi korxonalarda xodimlarning oylik ish haqi miqdori 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1,5 baravarga, KPI (faoliyat samaradorligini baholash ko‘rsatkichi) tizimiga o‘tilgan. 2022-yildan boshlab esa korxonalar moliyaviy samaradorligi 2019-yilga nisbatan 8,0 foizga;

«Baht-Textile» MChJ QK paxta-to‘qimachilik klasteri tizimidagi korxonalarda xodimlarning oylik ish haqi miqdori 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 2 baravarga, KPI (faoliyat samaradorligini baholash ko‘rsatkichi) tizimiga o‘tilgan. 2022-yildan boshlab esa korxonalar moliyaviy samaradorligi 2019-yilga nisbatan 4,0 foizga;

«Maroqand Sifat Tekstil» MChJ paxta-to‘qimachilik klasteri tizimidagi korxonalarda xodimlarning oylik ish haqi 2022-yilda, 2021-yilga nisbatan 1,5 baravarga, KPI (faoliyat samaradorligini baholash ko‘rsatkichi) tizimiga o‘tilgan. Xuddi shuningdek, 2022-yildan boshlab esa korxonalar moliyaviy samaradorligi

²⁴Muallif hisob-kitoblari.

2019-yilga nisbatan 12,0 foizga;

«Samarqand Kamalak Invest Tekstil» MChJ paxta-to'qimachilik klasteri tizimidagi korxonalarda xodimlarning oylik ish haqi miqdori 2022-yilda, 2021-yilga nisbatan 2,0 baravarga, KPI (faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichi) tizimiga o'tilgan 2022-yildan boshlab esa korxonalar moliyaviy samaradorligi 2019-yilga nisbatan 6,0 foizga oshgan.

Shu bilan birga, tadqiqot ishini yozishimiz davomida quyidagi ilmiy yangiliklar ishlab chiqildi. Xususan, agroklasterning moliyaviy samaradorligini baholash uslubiyoti kompleks tahlil metodologiyasi moliyaviy holat, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi kabi ko'rsatkichlar guruhini kiritish orqali takomillashtirilib, ushbu metodologiyani amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-yilda «Navbahor Tekstil» MChJ paxta-to'qimachilik klasteriga 4,8 mln. AQSh dollari, «Baht-Textile» MChJ QK paxta-to'qimachilik klasteriga 2,5 mln. AQSh dollari, «Maroqand Sifat Tekstil» MChJ paxta-to'qimachilik klasteriga 6,0 mln. AQSh dollari, «Samarqand Kamalak Invest Tekstil» MChJ paxta-to'qimachilik klasteriga 8,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi chet el investitsiyalari jalb etilganligini qayd etib o'tish lozim.

Moliyaviy mexanizm klasterning moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash, shuningdek, iqtisodiy faoliyat natijalari - foyda va klaster rentasi bo'yicha iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishini ta'minlashga qaratilishi lozimligi asoslab berilgan. Klaster rentasining takomillashgan ta'rifi ishlab chiqilgan.

Klaster rentasi – bu moliyaviy mexanizm hisoblanib, klaster ishtirokchilari tomonidan yaratilgan va ular o'rtasida ma'lum tamoyillar va usullar yordamida taqsimlanishi lozim bo'lgan pul oqimlari va pul mablag'laridir. Tahlillarimiz asosida klasterlar faoliyatini baholashda ularning paxta-to'qimachilik sanoatidagi quyidagi omillari ahamiyatli ekanligini qayd etamiz.



5-rasm. Paxta-to`qimachilik klasterlari faoliyatini baholash yuzasidan ahamiyatli omillar²⁵

Klaster samaradorligini baholash turli jihatlarni hisobga olgan holda uslubiy yondashuv bilan amalga oshirilishi mumkin. Klaster samaradorligini baholash uchun maqsad va mezonlarni belgilash, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, benchmarking,

²⁵ Muallif ishlanmasi.

SWOT tahlili, iqtisodiy ta'sirni tahlil qilish, tarmoq tahlili, ishtirokni baholash, hisobot va tavsiyalar kabi eng sodd metodologiya doim ishlatiladi. Ushbu metodologiyani qo'llash orqali klaster tashkilotlari va qaror qabul qiluvchilar klasterning samaradorligi va ish faoliyatini yaxshilash uchun mustahkam asos yaratishi mumkin. Shuningdek, u klaster doirasida innovatsiyalar, va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish uchun resurslar va chora-tadbirlarni maqsadli muvofiqlashtirishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, paxta-to'qimachilik klasteri samaradorligini baholash uchun quyidagi metodologik yondashuvlarga amal qilish lozim.

Biz taklif qilgan samaradorlikni baholash metodologiyasi paxta-to'qimachilik tarmogining moliyaviy xususiyatlarini ifodalovchi jami 11 ta ko'rsatkichni o'z ichiga olgan ko'p indikatorli usulga asoslangan. Agroklasterning samaradorlik ko'rsatkichlari (ASK) faoliyat samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlari o'lchovidan iborat bo'ladi. ASK ro'yxatiga agroklasterning vakolatli boshqaruv organi bo'lgan «O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari» Uyushma qarori bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin. ASKni hisoblashning axborot manbaiga agroklasterning buxgalteriya hisobi hujjatlari, davlat organlariga taqdim etiladigan hisobotlari (moliyaviy, statistik, soliq hisobotlari va boshqalar), biznes-reja, belgilangan tartibda olingan boshqa materiallardagi ma'lumotlar kiradi. ASKni hisoblash uchun taqdim etilgan ma'lumotlar haqqoniyligi, to'g'riligi va ishonchliligiga agroklasterning rahbari mas'ul hisoblanadi.



6-rasm. Paxta-to'qimachilik klasteri samaradorligini baholashga metodologik yondashuv²⁶

Baholash maqsadi uchun har bir ASKga uning agroklasterning ahamiyatini aks ettiruvchi vazn (salmoq o'lchovi) belgilanadi. Agroklasterga nisbatan tatbiq etiladigan ASK vaznlarining yig'indisi 100 foizni tashkil etishi lozim, shunga muvofiq ravishda har bir ASK vazni Uyushma tomonidan belgilab beriladi. Agroklasterning reyting balini aniqlashda ushbu foizlarning har biri ballda ifodalanib, yig'indi hisoblanadi. ASKning prognoz (maqsadli) ko'rsatkichlari har bir chorak uchun biznes-rejada, uning ajralmas qismi hisoblanadigan alohida ilova sifatida aks ettiriladi. ASKning prognoz (maqsadli) ko'rsatkichlari Uyushma tomonidan

²⁶ Muallif ishlanmasi.

qonunchilikda belgilangan me'yoriy miqdordan past bo'lmagan darajada belgilanadi. Joriy davrda agroklastar rahbari va a'zolarini mukofotlash miqdori samaradorlik ko'rsatkichi umumiy yig'indisiga bog'liq bo'ladi. Uyushma qaroriga binoan agroklastarning faoliyati natijalarini shakllantirishdagi haqiqiy ishtirokidan kelib chiqib, moddiy rag'batlantirish darajasiga tegishli tuzatish koeffitsienti qo'llanishi mumkin.

7-jadval

Agroklastar faoliyati umumiy reyting balini hisoblash tartibi²⁷

Ko'rsatkich	Vazn	Bajarilishi (%)	KPI*
Sof tushum prognozining bajarilishi (%)	10	A	10*A
Sof foyda (zarar) prognozining bajarilishi(%)	10	B	10*B
Aktivlar rentabelligi(%)	5	C	5*C
Qoplash koeffitsienti (to'lov qobiliyati)	10	D	10*D
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	15	F	15*F
Xarajatlarning daromadga nisbati (CIR – Cost Income Ratio)	10	G	10*G
Mutloq likvidlik koeffitsienti	10	H	10*H
Kreditorlik qarzlarning kunlik aylanmasi	10	L	10*L
Debitorlik qarzlarning kunlik aylanmasi	10	M	10*M
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti	5	N	5*N
Fond qaytimi	5	K	5*K
Jami	100		SUM

*Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi (KPI) har bir ASK bo'yicha bajarilish foizini vaznga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Agroklastarning umumiy reyting bali (SUM) 11 ta ko'rsatkich KPILari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Olingan foydani klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining tayyor mahsulotga qo'shgan hissasiga qarab mos ravishda taqsimlash mexanizmini (paritetni) joriy etish amaliyotini qo'llash tavsiya etilgan.

Agroklastar moliyaviy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari (11 ta ko'rsatkich) ishlab chiqilgan va ularni hisoblash metodikasi yaratilib, tavsiya etilgan. Mamlakatimizdagi 9 ta paxta-to'qimachilik klasterlariga qo'llab, ularning buxgalteri balanslari tahlili asosida moliyaviy samaradorliklari aniqlangan, tegishli xulosa va takliflar hosil qilingan.

“Mintaqaviy innovatsion klaster” va “klasterning moliyaviy samaradorligi” tushunchalarini tahlil qilishning adabiyotlardagi mavjud yondashuvlarini umumlashtirish asosida klasterlar tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini baholashni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Klaster samaradorligini baholash uchun taklif etilgan metodologiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular faoliyat tahlili o'tkazilishida muhim hisoblanadi. Birinchidan, u o'rganilayotgan tarmoq klasterlarining xususiyatlarini hisobga oladigan ko'rsatkichlarni aks ettiradi, bunda mezonlarning vaznlari o'xshash mulohazalar asosida (ekspertlarning fikrlarini o'rganish asosida) joylashtirib, tahlil qilinsa, tizimli tasniflash hosil bo'ladi va xulosa yasash osonlashadi. Ikkinchidan, metodologiyani qo'llash doirasida muddati cheklangan, chunki zamonaviy iqtisodiyotdagi vaziyat u yoki bu yo'nalishda keskin o'zgarishi mumkin (masalan,

²⁷Muallif hisob-kitoblari.

sanktsiyalar siyosatining keskinlashuvi natijasida xorijiy to'qimachilik mahsulotlarini import qilishni taqiqlash), bu esa baholash tartibiga tuzatishlar kiritishni talab qiladi. Ushbu xulosaviy tavsiyalarni inobatga olish mahalliy to'qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini to'g'ri baholash imkonini beradi.

Agroklastlar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni hisobga oladigan turli omillarni o'z ichiga olishi ta'kidlanib, eng muhim ko'rsatkichlar va baholash metodologiyasi tavsiya etildi:

muhim ko'rsatkichlar: iqtisodiy ko'rsatkichlar (hosildorlik - gektaridan hosil, ishlab chiqarish xarajatlari, foyda marjasi; bozorga kirish - mahsulot eksport qilinadigan bozorlar soni, bozor ulushi; investitsiyalar - infratuzilma va texnologiyalarga investitsiyalar miqdori), ijtimoiy ko'rsatkichlar (bandlik - agroklaster tomonidan yaratilgan ish o'rinlari soni; ta'lim - o'quv dasturlari va ishtirokchilar soni; hayot sifati - mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilash, ekologik ko'rsatkichlar (barqarorlik - ekologik toza dehqonchilik usullaridan foydalanish, pestitsidlarni kamaytirish; resurslardan foydalanish - suv va yerdan foydalanish samaradorligi; bioxilma-xillik - bioxilma-xillikni saqlash va targ'ib qilish).

baholash metodologiyasi: ma'lumotlarni yig'ish (so'rovlar, intervyular va dala tadqiqotlari orqali birlamchi ma'lumotlarni to'plash; mavjud hisobotlar va statistik ma'lumotlardan ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanish), ma'lumotlarni tahlil qilish (iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash uchun miqdoriy tahlil, ijtimoiy va ekologik ta'sirlarni baholash uchun sifatli tahlil), benchmarking (ko'rsatkichlarni milliy va xalqaro standartlar bilan taqqoslash, ilg'or tajribalarni va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash), hisobot (baholash natijalarini umumlashtiruvchi hisobotlarni tayyorlash, natijalarni manfaatdor tomonlar va qaror qabul qiluvchilarga taqdim etish).

XULOSA

Klasterlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat tomonidan ko'rilayotgan choratadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida klasterlar faoliyatini to'g'ri baholash usullarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda, bunda tarmoqning o'ziga xosliklari hisobga olinadi. Bizning fikrimizcha, klaster tuzilmalari faoliyati samaradorligini baholash masalasi yaqin kelajakda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Zamonaviy sharoitda moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli, eng foydali investitsiya variantini tanlashning jiddiy muammolari mavjud. Klasterlarni baholash bo'yicha taklif etilayotgan tavsiyalar esa ma'lum darajada bu muammoni hal qiladi.

Agroklasterlarning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligi tahlilini takomillashtirish to'g'risidagi tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Chet mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanish, jumladan, klasterlar faoliyatida mezonin moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llash metodologiyasini ishlab chiqish va buni O'zbekiston klasterlariga joriy etish.

2. Klasterlar faoliyatini baholashning ko'p ko'rsatkichli metodologiyasini joriy

etish va bunda 11 ta ko'rsatkichdan foydalanish.

3. Klasterlar faoliyatida tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy mexanizmlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish va ko'rsatkichlarni tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish;

4. Klasterlar faoliyatiga ko'p omilli ko'rsatkichlar asosida baholash amaliyotini yo'lga qo'yish.

5. Klasterlar faoliyatida samaradorlikni baholashning kompleks ko'rsatkichidan foydalanish va KPI baholash usulini amaliyotga tadbiq etish, KPI tizimini tadbiq etish bo'yicha huquqiy asosni yaratish (mos modelni tanlash, huquqiy bazani takomillashtirish, tuzilmani optimallashtirish, KPI bo'yicha hisobot shakllarini ishlab chiqish va boshqalar).

6. Olingan foydani klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining tayyor mahsulotga qo'shgan hissasiga qarab mos ravishda taqsimlash mexanizmini joriy etish.

7. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armalariga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratishga doir takliflar kiritib borish lozim.

8. Klasterlarga nufuzli xalqaro auditorlik tashkilotlarini jalb qilgan holda ular faoliyati samaradorligi va moliyaviy ko'rsatkichlarini mustaqil tashqi auditdan o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

9. Klasterlashtirish sohaning sanoatlashishi, innovatsiya va modernizatsiya jarayonlarini tezlashishi, chet el investitsiyasi jalb etish, davlat va xususiy sektor o'rtasida faol muloqot yuzaga kelishi, agrosanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishni ta'minlaydi.

10. Klasterlar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini, klasterlar faoliyati moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini hamda ularni tahlil qilish uslubiyotini, shuningdek, klasterlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish lozim.

Ilmiy izlanishlar natijasida agroklasterning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligi tahlilini takomillashtirish mexanizmlarining shakllanishi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
№DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ОЧИЛОВ ИЛХОМ САЙИТКУЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УЧЁТА И АНАЛИЗА
ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АГРОКЛАСТЕРОВ**

**08.00.08 – Бухгалтерский учёт, экономический анализ и аудит
08.00.04 – Экономика сельского хозяйства**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.2.DSc/Iqt715.

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертация на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Исроилов Боходир Ибрагимович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Эгамбердиев Фармонкул Турсункулович
доктор экономических наук, профессор

Маматкулов Муроджон Шукурович
доктор экономических наук, профессор

Мавлонов Нормумин Нормаматович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

**Самаркандский государственный университет
ветеринарной медицины, животноводства и
биотехнологий**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в __ часов на заседании Разового научного совета на основе Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению научных степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (71) 239-28-72; факс: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под номером №__). (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (71) 239-28-72; факс: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.)

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(Протокол реестра №__ от «__» _____ 2024 года)

С.У.Мехмонов

Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В.Гафуров

Секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Б.А.Хасанов

Председатель Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Вследствие ежегодного роста населения мира проблема обеспечения населения продовольственными товарами становится всё более актуальной изо дня в день. Согласно данным, несмотря на меры, принимаемые ООН и другими странами мира по обеспечению населения продовольственными товарами, достижение положительного результата в этом направлении остаётся до сих пор на низком уровне. По исследованиям ФАО, «более 820 миллионов людей на земном шаре страдают от недоедания, и к 2050 году этот показатель может достичь 2 миллиардов человек. Каждый третий человек из мирового населения не может питаться на основе полноценного рациона, и 45 процентов детской смертности в возрасте до 5 лет происходит в результате недоедания, ежегодно 3,1 миллионов детей умирают по этой причине»²⁸. Это показывает, что потребность населения в продовольственных товарах, в особенности вопрос обеспечения гигиенически чистой, богатой натуральными витаминами продукцией, отвечающей установленным нормативным требованиям, является одной из важнейших стратегических задач государств.

В условиях усиления глобальной конкуренции и интеграционных процессов в мире проводится множество научных исследований, направленных на совершенствование методологии учёта и анализа эффективности деятельности агрокластеров. Классификация деятельности кластеров и разработка научно-методологических подходов к её организации, совершенствование организационно-правовых основ развития, разработка методологии оценки эффективности организационно-экономических и финансовых механизмов деятельности агрокластеров, формирование системы показателей, характеризующих финансовые результаты, совершенствование организационно-экономического механизма государственной координации деятельности агрокластеров, разработка методов оценки эффективности услуг, оказываемых агрокластерами, вопросы внедрения цифровых технологий в эти процессы являются одними из приоритетных направлений научных исследований в этой области.

В Новом Узбекистане большое внимание уделяется развитию сельского хозяйства в обеспечении устойчивого социально-экономического развития. В частности, в «Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» отмечено, что «развитие цепочки добавленной стоимости является важным фактором обеспечения конкурентоспособности сельского хозяйства. Недостаточное развитие интеграционных связей в цепочке доставки продукции от поля до конечных потребителей, то есть при сборе, транспортировке, хранении, переработке, упаковке и сертификации ограничивает возможности увеличения объёмов производства продукции с высокой добавленной стоимостью»²⁹. В результате из-за несоответствия услуг по сортировке и хранению сельскохозяйственной продукции необходимым

²⁸ Расчёты автора (на основе данных <http://www.fao.org/sustainable-development-goals>).

²⁹ <https://lex.uz/docs/4567334> Указ Президента Республики Узбекистан, № УП-5853 от 23.10.2019 года.

требованиям около 30 процентов урожая погибает. Всего лишь 3-4 процента выращиваемых овощей и 11 процентов фруктов реализуется на экспорт. Несмотря на то, что осуществлены научные исследования по социально-экономическому развитию аграрной отрасли, не исследованы организационно-экономические механизмы аграрной сферы и перспективы повышения их эффективности в условиях глобальной, зелёной и цифровой экономики, в том числе недостаточная изученность теории и практики управления инновационными процессами, формирование отрасли, создающей высокую добавленную стоимость и достижение высокой экономической эффективности, внедрение механизмов государственно-частного партнёрства в сферу, то есть социально-экономическое развитие аграрной отрасли остается одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-2 от 10 января 2023 года «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также дальнейшему повышению экспортного потенциала сферы», № УП-71 от 1 мая 2024 года «О мерах по выведению на новый этап развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности», в Постановлениях Президента № ПП-2978 от 19 мая 2017 года «О мерах по созданию современного хлопководческо-текстильного кластера в Бухарской области», № ПП-4611 от 24 февраля 2020 года «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчётности», № ПП-307 от 6 июля 2022 года «Об организационных мерах по реализации стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», в Постановлении Кабинета Министров № 207 от 28 июля 2015 года «О внедрении критериев оценки эффективности деятельности акционерных обществ и других хозяйствующих субъектов с долей государства» и других нормативно-правовых документах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I.«Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³⁰.

³⁰Обзор подготовлен на основе данных следующих интернет источников: The International Agricultural Trade Research Consortium (IATRC). The Impact of Pillar II Funding Validation from a Modelling and Evaluation Perspective, Schroeder, Gocht, and Britz 2015, and Economic Research Service (ERS), Agricultural taxation under structural adjustment [2008], Current fiscal issues fiscal monitor: policies for the recovery (2019), Fiscal Monitor: Fiscal Policy from Pandemic to War (2020) ҳамда <http://www.fao.org>, www.sardc.net; <https://www.weforum.org>; www.harvard.edu; <https://www.piie.com>; <https://www.uchicago.edu>; <http://unctad.org>; <https://www.bankofamerica.com>; <http://www.weforum.org>; <http://www.beri.com>; <https://www.controlrisks.com>; <http://www.eiu.com>; <https://www.euromoney.com>; www.institutionalinvestor.com; <https://www.prsrgroup.com>;

